



TERMINAL HOLATLADA BIRINCHI YORDAM

Rajabova Gulbaxor Farxod qizi

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Xirurgiyaga aloqador fanlar kafedrası

Annotatsiya: Mazkur mavzu terminal holatlarda birinchi yordam ko'rsatishning nazariy va amaliy asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Terminal holatlar — bu organizm hayot faoliyatining keskin susayishi bilan kechadigan, klinik o'lim, og'ir shok, kollaps va nafas hamda yurak faoliyatining to'xtashi kabi hayot uchun xavfli vaziyatlardir. Ushbu mavzuda terminal holatlarning sabablari, belgilari, rivojlanish bosqichlari hamda ularni erta aniqlash mezonlari ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, birinchi yordam ko'rsatish algoritmlari, yurak-o'pka reanimatsiyasi (YOR), sun'iy nafas berish, yurakni bilvosita massaj qilish, qon ketishini to'xtatish hamda shoshilinch tibbiy yordam kelguniga qadar jabrlanuvchining hayotini saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar batafsil bayon etiladi. Mavzu aholining tibbiy savodxonligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Terminal holat, terminal pauza ,preagonal holat, agoniya, nafas reflekslari, klinik o'lim, buyruqli davolash usuli, himoyachi nuqtai,xolistik yondashuv, ritmik bosimlar, tashqi shikastlovchi omillar, sun'iy nafas, suyak chiqishi, suyak sinishi, zaharlanish, hushdan ketish, jarohatlanish, kompressiya.

Аннотация: Первая помощь при терминальных состояниях относится к последнему этапу жизни, состоянию между жизнью и смертью. При этом происходят глубокие изменения в работе органов и систем, важных для выживания организма, даже если они могут быть восстановлены, и



нарастает гипоксия. Наступление анестезии включает три стадии: преагонию, агонию и клиническую смерть, в течение которых сохраняются дыхательные рефлексы и сердечная деятельность. Длительность терминального состояния зависит от тяжести или легкости основного заболевания и мер, принимаемых для оживления организма.

Ключевые слова: Терминальное состояние, терминальная пауза, преагональное состояние, агония, дыхательные рефлексы, клиническая смерть, метод командного лечения, защитная перспектива, целостный подход, ритмические давления, внешние травмирующие факторы, искусственное дыхание, выпячивание кости, перелом кости, отравление, потеря сознания, травма, сдавление

Abstract: First aid for terminal conditions refers to the last stage of life, the state between life and death. In this case, profound changes occur in the functioning of organs and systems important for the survival of the body, even if they can be restored, and hypoxia increases. The onset of anesthesia includes three stages: preagony, agony and clinical death, during which respiratory reflexes and cardiac activity are preserved. The duration of the terminal state depends on the severity or mildness of the underlying disease and the measures taken to revive the body.

Key words: Terminal state, terminal pause, preagonal state, agony, respiratory reflexes, clinical death, team treatment method, protective perspective, holistic approach, rhythmic pressures, external traumatic factors, artificial respiration, bone protrusion, bone fracture, poisoning, loss of consciousness, trauma, compression

Terminal holat — organizm hayot faoliyatining keskin susayishi natijasida o‘limga yaqinlashgan og‘ir patologik jarayon. Bu holatda yurak, nafas va markaziy asab tizimi faoliyati izdan chiqadi.

Terminal holatlarda birinchi yordam—baxtsiz hodisalar ro‘y berganda, kishi shikastlanganda yoki to‘satdan kasal bo‘lib qolganda uning hayotini asrab qolish va yomon asoratlardan omon qolishi uchun ko‘rsatiladigan tez va oddiy tadbirlar



majmui; shifokor yetib kelguncha yoki ularni shifoxonaga olib borguncha amalga oshiriladi. Birinchi yordam o'z-o'ziga yoki boshqalar tomonidan (o'zaro) ko'rsatilishi mumkin. Shikastlangan odam jarohatini o'zi bog'lay olsa, zaharlanish alomati bo'lganida, mast, ko'p suyuqlik ichib me'dani yuvish va qayt qilishga quvvati kelsa, o'z-o'ziga Birinchi yordam ko'rsatishi mumkin. O'zaro Birinchi yordam odatda boshqa kishi tomonidan ko'rsatiladi. Kishining hayoti xavf ostida qolganda, mast, qon ketganda, tok urganda, zaharlanishda, koma, shok va boshqa holatlarda darhol Birinchi yordam ko'rsatish zarur. Keyingi ko'rsatiladigan tibbiy yordam Birinchi yordamning qanchalik to'g'ri ko'rsatilganligiga bog'liq. Mast, suyak ochiq singanda bog'lov va shina (taxtakach)ning tez va to'g'ri qo'yilishi ko'pincha shok va boshqa og'ir kasalliklarning oldini olishga, shikastlanib behush yotgan kishini yonboshi bilan yotqizish traxeya va bronxlarga qusuq massasi hamda qon ketib qolmasligiga yordam beradi. Asosiy qism Birinchi yordam uch xil tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi:

1. Tashqi shikastlovchi omillar (elektr toki, bosib qolgan og'ir narsa va boshqalar) ta'sirini darhol bartaraf etish yoki shikastlangan kishini noqulay sharoitdan xoli qilish (suvdan, o't tushgan joydan olib chiqish va boshqalar);

2. Shikastlanish tarziga qarab Birinchi yordam ko'rsatish (bular haqida q. Suyak chiqishi, Suyak sinishi, Zaharlanish, Hushdan ketish, Jarohatlanish, Kuyish va b.);

3. Yaqin atrofdagi kasalxona, poliklinikaga yetkazish. Odam to'satdan betob bo'lib qolganida, turli xil baxtsiz hodisalar ro'y berganida, albatta tez yordam chakirish, noiloj qolgan hollarda duch kelgan transportda davolash muassasasiga olib borish zarur. To'g'ri Birinchi yordam ko'rsatish uchun doim tegishli bilim va malakani oshirib borish lozim. Ishxona, avtomashina va uydagi dori qutichasida Birinchi yordam uchun zarur bo'lgan hamma narsalar bo'lishi kerak. Yoqimsiz holatlar kutilmaganda ro'y berishi mumkin, shu bois har qanday vaziyatda ham ularga tayyor turish kerak, ayniqsa boshqa bir insonning hayoti sizning ko'nikmalingizga bog'liq bo'lsa. Don't Panic birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha



har bir inson bilishi kerak bo'lgan besh asosiy tamoyili bilan bo'lishdi. Sun'iy nafas har bir inson bilishi kerak bo'lgan elementar reanimatsion xatti-harakatlar sirasiga kiradi. Jabrlanuvchiga kislorod yetkazish uchun shunchaki yuzma-yuz nafas olishning o'zi kifoya, deb o'ylamang. Birinchi navbatda, nafas yo'llarini tekshirib, zarurat tug'ilgan taqdirda, biror bir predmet, qon yoki balg'am bo'lsa, tashqariga chiqarib tashlash kerak. Ilk 10 havo yuborishni tezlikda bajaring, keyin esa bir daqiqada 20 nafas ritmini qo'llang. Yodingizda bo'lsin: agar insonning ko'krak qafasi ko'tarilayotgan bo'lsa, demak, barchasi to'g'ri ketmoqda. Agar jabrlanuvchining pulsi yo'qligini sezsangiz, yurakni massaj qilish kerak. Ko'krak qafasining eng qisqa va tor qismini aniqlang va uning chetidan 2-3 santimetr o'lchang -bu kompressiya nuqtasi bo'ladi. Kaftning asosini shu yerga qo'ying, uni ikkinchi kaft bilan yoping -bosim aynan shu qismlar bilan amalga oshiriladi. Ritmik bosimlarni kuchli, vertikal yo'nalishda amalga oshiring. Biroz ter to'kishingizga to'g'ri keladi: chastota daqiqasiga 110 martani tashkil qilishi kerak. Puls bo'lsa, yurak massajiga hojat yo'q.

XULOSA Terminal davrda hamshiraning tutgan o'rni: 1) Bemor bedavo kasalga chalingani va hayot jarayonining yakuniy bosqichida ekanligini tushunib, uning hayot tarziga hurmat qo'rsatishi zarur. 2) Terminal bemorning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy ruhiy azoblarining o'zaro murakkab aloqasini ifodalovchi umumiy azoblarni tekshirish va ularni bartaraf qilish yoki yengillashtirishga harakat qilish lozim.

3) Xolistik yondashuv asosida bemorning hayot sifatini oshirishda malakali yordam ko'rsatish. 4) Himoyachi nuqtai-nazaridan yordam ko'rsatib bemorning hohish-irodasini hurmat qilish. 5) Terminal bemorning oila a'zolarining azoblarini tushunish va yordamni ko'rsatish. 6) Buyruqli davolash usulida hamshiralik parvarishi bo'yicha mutaxassis sifatida o'z vazifalarini amalga oshirish. O'lim mazmuni va mohiyati. Inson uchun o'limga bo'lgan munosabat inson turmushining qaysi tomoniga e'tibor berishimizga ko'ra farq qiladi. Odatda har qanday tirik jonga o'lim yozilgan. O'lim biologik organizm sifatida hayot



faoliyatining tugashini anglatmaydi, insonning hayot faoliyatining tugashi va xulosalari chiqarishni ifodalab, ancha chuqur ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YATI:

1. Hamraev A. J., Alimov A. V., Ahzamxo'jaev T. S. 2. "Xirurgiya va reanimatsiya asoslari". Toshkent, "Zar qalam" nashriyoti, 2005 yil.
- Muxtorov M. X., Qaxxorov I. K. "Reanimatsiya asoslari" Toshkent, "Ilm-ziyo" nashriyoti, 2005 yil.
3. Razikova I. S., Alikulova D. Ya. "Gerontologiyada xamshiralik ishi" o'quv qo'llanma.
4. „BO3 | Serdechno-sosudistie zabolevaniya“. WHO. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.
5. „Статистический сборник 2017 год“ (ru). www.rosminzdrav.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.
6. *Том 3: Заболевания сердечно-сосудистой системы (I)*. Практика, 2014.
7. „Четвертое универсальное определение инфаркта миокарда (Европейское Общество Кардиологов 2018)“ (ru). cardioweb.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.
8. „Цереброваскулярные заболевания“. www.emcmos.ru. Qaraldi: 2019-yil 30-mart.